



NAMANGAN VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI



2020- YIL



2020- yilda sog‘liqni saqlash sohasiga bo‘lgan e‘tibor nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo ahli uchun ham nihoyatda dolzarb mavzu bo‘ldi. Barchani larzaga solgan epidemiya ushbu soha xodimlarini qattiq sinovdan o‘tkazdi. Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish mamlakatimizda eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoda. Bu borada davlat–xususiy sherikchilik asosida xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish, hamda sog‘lom raqobatni kuchaytirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Tibbiy xizmatning sifat va samaradorligini yanada yuksaltirish, sohaga oid ilg‘or innovatsiyalarni muntazam amaliyotga tadbiq etish, soha xodimlarining bilim va malakasini doimiy oshirib borish, shifoxona muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta‘minlashga alohida ahamiyat berilmoqda.



2020- yilda Namangan viloyatida shifoxona muassaslari faoliyati




Namangan viloyatida 2020- yil yakuni bo'yicha 108 ta ta shifoxona muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Ulardagi bemorlar uchun ajratilgan o'rinlar soni 12 244 ta bo'lib, yil davomida davolangan bemorlar soni 946,6 ming.kishini tashkil etdi. Jami shifoxona muassasalarining 82 tasi, yoki 70,6 % kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan shifikorlar soni jami 5 221 nafar bo'lib, ulardan 2 268 nafari (43,3%) ayollardan iborat. O'rta tibbiyot xodimlari soni jami 30 554 nafarni tashkil etadi, ulardan 26 707 nafari (87,4 %) ayollar hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilda Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan shifoxona muassasalari soni, (birlik)



Ma'lumot uchun:



Shifoxona – tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega bo'lgan, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi. Shifoxona muassasalarida zaruriy anjomlar bilan jixozlangan va band bo'lishi yoki band bo'lmasligidan qat'iy nazar, kechayu-kunduz davomida bemorlarni qabul qilish uchun tayyor turgan **shifoxona o'rinlari** hisobga olinadi

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan shifoxona muassasalari soni dinamikasi, (birlik)



	2010-y	2011-y	2012-y	2013- y	2014- y	2015- y	2016- y	2017- y	2018-y	2019- y	2020-y
Viloyat bo'yicha	108	56	129	105	97	99	115	125	131	116	108
Namangan sh.	40	19	40	33	47	43	50	54	55	45	44
tumanlar:											
Mingbuloq	3	1	3	2	2	3	2	3	13	3	2
Kosonsoy	17	10	13	6	7	10	11	12	3	14	14
Namangan	8	5	6	6	5	6	7	7	8	4	2
Norin	4	1	3	3	1	2	2	2	2	1	1
Pop	7	4	10	8	5	8	7	7	6	7	8
To'raqo'rg'on	3	-	3	1	1	2	1	3	3	6	8
Uychi	3	2	5	5	5	3	5	6	7	6	2
Uchqo'rg'on	5	3	10	6	7	6	6	6	6	8	6
Chortoq	3	2	4	6	6	5	7	7	6	5	4
Chust	10	7	12	10	10	10	13	14	15	11	10
Yangiqo'rg'on	5	2	5	5	1	1	4	4	7	6	7

Namangan viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyati




2020- yilda Namangan viloyatida 333 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Ulardan 75 tasi qishloq vrachlik punktlari hisoblanadi. O'tgan 2019- yilga nisbatan taqqoslaganda ular soni o'zgarmagan.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari bir smena davomida 24013 nafar bemorlarni qabul qilish quvvatiga ega. Yil davomida qatnovlar soni 20790,6 ming nafarni tashkil etdi, hamda qayd qilingan kasalliklar soni 1316,6 mingdan iborat. Jumladan: 14 yoshgacha bolalar soni - 321,5 ming nafar, 15-17 yoshli bolalar soni - 128,2 ming nafar va 18 yosh va undan katta yoshdagi bemorlar soni 867,3 ming nafar.



2020- yilda Namangan viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni , (birlik)



■ Ambulatoriya-poliklinikalar soni

■ Qishloq vrachlik punktlari

Ma'lumot uchun:



Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soniga – aholining ushbu muassasalarga qatnab yoki shifokorlarning uylarga tashtif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalar kiradi. Ular qatoriga mustaqil poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, QVP lari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslaxatxonalar kiradi.

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni dinamikasi, (birlik)

2010- yil-395

2011- yil-429

2012- yil-424

2013- yil-405

2014- yil-378

2015- yil-393

2016- yil-418

2017- yil-125

2018- yil-347

2019- yil-333

2020- yil-333



Ma'lumot uchun



Aholining kasallanishi – yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ambulator-poliklinikalar soni, (birlik)

	2010- y	2011- y.	2012- y	2013- y.	2014- y	2015- y	2016- y.	2017- y.	2018- y	2019- y.	2020- y
Viloyat bo'yicha	395	429	424	405	378	393	408	125	347	333	333
Namangan sh	74	100	78	73	94	96	102	54	107	89	89
<i>tumanlar:</i>											
Mingbuloq	22	22	19	20	19	19	22	12	15	15	15
Kosonsoy	32	32	33	31	29	30	30	3	24	23	23
Namangan	33	34	34	33	29	30	31	7	21	19	19
Norin	23	23	22	21	19	19	21	2	15	14	14
Pop	33	34	33	34	31	33	37	7	33	35	35
To'raqo'rg'on	29	28	30	26	24	30	27	3	18	18	18
Uychi	27	28	27	27	24	26	28	6	25	23	23
Uchqo'rg'on	26	27	25	23	26	25	26	6	18	24	24
Chortoq	27	31	32	28	24	25	24	7	20	21	21
Chust	41	41	42	40	32	32	40	14	33	34	34
Yangiqo'rg'on	28	29	32	32	27	28	30	4	18	18	18


Namangan viloyati shixona muassaslarida xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlari




2020- yil yakuni bo'yicha viloyat shifoxonalarida jami 35775 nafar tibbiyot xodimlari xizmat qilgan. O'tgan 2019- yilga nisbatan ular soni 414 nafarga ortgan. Jami tibbiyot xodimlarining 4,2 % kichik biznes sub'ektlarida faoliyat olib boradi.

Tibbiyot xodimlarining 5221 nafari yoki 15,5 % shifokorlar va qolgan 30554 nafari yoki 84,5 % o'rta tibbiyot xodimlari hisoblanadi.

Sohada xizmat qilayotgan jami tibbiyot xodimlarining 26707 nafari yoki 74,6 % ni ayollar tashkil etadi.



Namangan viloyat tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan shifokorlar soni , (kishi)



Ma'lumot uchun :



Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soniga – yil yakuniga ko'ra tibbiy, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek tibbiyot xodimlarini tayyorlash muassasalari, sog'liqni-saqlash organlari apparatlarida va boshqa tashkilotlarda band bo'lgan oliy tibbiy ma'lumotga ega barcha shifokorlar sonini ifoda etadi.





Namangan viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlar soni, (kishi)

	2010- y.	2011- y.	2012- y.	2013- y.	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Namangan viloyati	3751	3894	4096	4326	4780	4804	5096	5157	5299	5284	5221
Namangan sh	1995	1987	2074	2148	2384	1999	2338	4783	2331	2362	2354
<i>tumanlar:</i>											
Mingbuloq	95	103	111	125	139	167	170	53	185	189	191
Kosonsoy	164	175	172	181	170	217	226	11	278	242	231
Namangan	98	110	103	112	140	243	180	37	195	179	162
Norin	127	135	148	154	176	182	188	7	185	182	208
Pop	189	201	219	247	284	334	341	41	352	374	374
To'raqo'rg'on	154	171	169	187	206	268	256	19	244	276	254
Uychi	147	178	194	211	229	251	234	31	251	250	232
Uchqo'rg'on	198	210	248	264	290	311	296	30	305	310	313
Chortoq	163	174	187	201	217	225	244	59	281	255	242
Chust	293	301	319	327	348	384	401	67	456	430	389
Yangiqo'rg'on	128	149	152	169	197	223	222	19	236	235	271


**Namangan viloyat tibbiyot muassasalarida
faoliyat
ko'rsatgan shifokorlar soni dinamikasi, (birlik)**



2020- yil yakuniga ko'ra 10 000 nafar aholiga to'g'ri keladigan tibbiy xodimlar (shifokorlar) soni nisbiy statistik ko'rsatkich bo'lib, u shifokorlar sonini doimiy aholi soniga nisbati orqali ifodalanadi .

Namangan viloyatida ushbu ko'rsatkich 2020-yil yakuni bo'yicha 22,3 ni tashkil etdi.

2020- yilda shifoxona muassasalarida xizmat qilayotgan o'рта tibbiyot xodimlari soni, (birlik)



Ma'lumot uchun:



O'рта tibbiyot xodimlarining umumiy soniga – sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, go'daklar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'рта maxsus tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan barcha shaxslar kiradi

Namangan viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatgan o'rta tibbiyot xodimlari soni dinamikasi, (birlik)



2020- yil - 30554

2019- yil - 29127

2018- yil - 27790

2017-yil - 26393

2016- yil - 25395

2015- yil- 24705

2014- yil-25134

2013- yil -23413

2012- yil- 24862

2011- yil -25161

2010- yil - 22286



Namangan viloyati sifoxona muassasalarida xizmat qilgan o'рта tibbiyot xodimlari soni, (kishi)

	2010- y.	2011- y.	2012- y.	2013- y.	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Viloyat bo 'yicha	22286	25161	24862	23413	25134	24705	25395	26393	27790	29127	30077
Namangan sh	10255	11903	10987	10293	11235	10238	7923	9355	26842	9566	9826
<i>tumanlar:</i>											
Mingbuloq	985	1035	869	758	924	862	927	1496	121	1105	1184
Kosonsoy	1055	1195	1297	1136	1248	1360	1401	839	17	1648	1580
Namangan	857	959	1078	912	987	842	1450	1127	88	1506	1490
Norin	952	1078	906	813	758	870	1156	1188	5	1362	1490
Pop	1452	1689	1742	1653	1736	1875	1942	1948	109	2336	2534
To'raqo'rg'on	895	990	1109	1023	989	1085	1652	1533	38	1594	1849
Uychi	1025	1156	1237	1196	1325	1273	1771	1650	35	1829	1910
Uchqo'rg'on	1141	1289	1324	1256	1497	1391	1721	1619	60	1718	1830
Chortoq	985	1023	1146	1096	1129	1495	1923	1963	325	2441	2278
Chust	1654	1741	1978	1879	2013	1928	2064	2206	133	2527	2621
Yangiqo'rg'on	1030	1103	1189	1398	1293	1486	1465	1469	17	1495	1485

2020- yilda Namangan viloyatida tez tibbiy yordam faoliyati

Viloyatda 2020- yil yakuni bo'yicha aholi tomonidan chaqiriqlar soni 1081,1 ming marotabani tashkil etdi. Yil davomida jami 1440,7 ming nafar bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatildi.

Bajarilgan chaqiriqlar soni -
1081,1 ming marta

Tibbiy yordam ko'rsatilgan
shaxslar soni 1440,7 ming kishi



2020- yilda Namangan viloyatida kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi

2020- yil yakuni bo'yicha Namangan viloyati aholisining asosiy sinflar bo'yicha kasalliklarga chalinishi (birinchi marta tashxis aniqlangan holatlar soni) 946,7 ming nafarni tashkil etdi.

Aholi o'rtasida jami kasallanish holatlari ichida eng yuqori o'rinlarda nafas olish a'zolari kasalliklari 23,4 % ni, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 9,2 % ni, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar kasalliklari 18,3 % ni tashkil etgan.




Ma'lumot uchun

Aholining kasallanishi - yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktika ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

Bemorlar kontingenti- joriy hamda o'tgan yillarda tibbiyot muassasalariga murojaat etgan va kasallikka chalingan barcha shaxslar kiradi.

2020- yilda aholini kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha chalinishi, %

- Nafas olish kasalliklari
- Qon va qon yaratish kasalliklari
- Jarohatlanish, zaharlanish kasalliklari
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari
- Boshqa turdagi kasalliklar
- Siydik-tanosil tizimi kasalliklari
- Homiladorlik, tug'ruq va undan keyingi asoratlar
- Qon aylanish tizimi kasalliklari
- Asab tizimi kasalliklari
- Endokrin tizimi kasalliklari



Namangan viloyat statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Telefon (69) 211-72-00